



## XALQ DOSTONLARINING O‘ZBEK TILSHUNOSLIGIDA O‘RGANILISHI

*Yo‘ldosheva Nodira Nurillo qizi*  
*Email: [yuldasevan446@gmail.com](mailto:yuldasevan446@gmail.com)*  
*Namangan davlat universiteti*  
*Lingvistika (o‘zbek tili)*  
*2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** Xalq dostonlari qadimdan vatanga muhabbat, millat va uning qadriyatlari haqida so‘zlab keladi. Xalq dostonlari dutor, do‘mbira va xalq cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Bu madaniyat va tarix uyg‘unligidir. O‘zbek tilshunosligida xalq dostonlarining o‘rganilishi ahamiyati haqida bugungi maqolamizda yoritamiz.

**Kalitso‘zlar:** doston, san‘at, folklor, urf-odatlar, Alpomish, tarix, baxshi, cholg‘u asboblari

Doston – xalq og‘zaki ijodining eng yirik janri bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, fantastik mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asar. Qahramonlarning sarguzashtlari, o‘zaro munosabatlari va kechinmalarini keng ko‘lamda tasvirlovchi yirik hajmli liro-epik asar doston deyiladi. Doston davr, tuzumdagi xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Zamonlar o‘tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g‘oyaviy mazmun bilan boyib boradi. O‘zbek xalq dostonchiligi juda qadimiy va mo‘tabar meros nishonasidir. Xalq ijodiyoti san‘ati insonning kamolotida alohida o‘rin tutadi. Barcha san‘atlarning rivoji negizida xalq ijodi turadi. Insoniyat paydo bo‘lgandan to bugunga qadar san‘atning adabiyot, qo‘shiqchilik kabi turlarida xalq og‘zaki namunalardan foydalanib kelinmoqda.[1]

Og‘zaki ijod namunasi bo‘lgan dostonlar ko‘plab variantlarga egaligi (misol uchun bugunga qadar «Alpomish» dostonining 50 yaqin, «Go‘ro‘g‘li» turkumidagi dostonlarining yuzga yaqin variantlari yozib olingan), jamoaviyligi, an‘anaviyligi bilan yozma adabiyot namunasi bo‘lgan dostonlardan ajralib turadi. Xalq og‘zaki ijodining eng yuksak namunasi bo‘lgan dostonlar og‘zaki o‘zlashtiriladi, og‘zaki ijro etiladi va og‘zaki tarzda meros qoldiriladi. Akademik T.Mirzayev folklorning asosiy xususiyatlari haqida to‘xtalar ekan, quyidagilarni qayd etadi. “Folklorning

asosiy xususiyati ijodiyjarayon – yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining og‘zakiligi va unga ko‘pchilikning ishtiroki (jamoaviylik xarakteriga ega bo‘lishi) bilan belgiladi. Uning an’anaviylik, o‘zgaruvchanlik, variantlilik, ommaviylik, anonimlik (muallifining noma’lumligi) kabi ko‘pdan ko‘p belgilari folklorga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo‘ladi”. [2]

Xalq og‘zaki ijodi durdonalari go‘yo buloqqa o‘xshaydi, bu xalqimiz o‘tmishi uning o‘chmas tarixi, urf-odatlarini, orzu-istaklari va avlodlarimiz kelajagi poydevori demakdir. Unda millatning o‘zligini anglashi, hayotga bo‘lgan intilishlari, dunyoqarashlari o‘z aksini topgan. Ajdodlarimizning milliy-ma’naviy merosi asrlar osha yashab kelmoqda. Doston bu xalq og‘zaki ijodining eng yirik turlaridan bo‘lib, u qahramonlik, ishqiy-sarguzasht, xayoliy mazmunga ega bo‘lgan voqealarni bayon qiluvchi asarlardan hisoblanadi. Doston o‘zida xalq ruhiyatini, xususiyatlarini aks ettiradi. Vaqt o‘tishi bilan ular yangi-yangi mavzular va g‘oyaviy mazmun bilan boyib boradi. Dostonlar xalq tomonidan yaratilgach, ijodkor xalq ular orqali o‘z maqsadlari, orzu-istaklari, his-tuyg‘ularini ifodalaydi. [3] Dostonlardagi antroponimlar, onomastik birliklar, toponimlar, gidronimlar, agnonimlar va teonimlarning o‘rganilishi ham tilshunoslik uchun katta yutuqlardan biri sanaladi. “Alpomish” xalq dostonidagi agnonimlar haqida batafsil so‘z yuritilsa, ularning naqadar ahamiyatli ekanini anglash mumkin. Bir qarashda bu agnonimlarni idrok etish mushkul, ammo o‘zbek tilshunosligida bu bo‘yicha bir qancha olimlar tadqiqotlar o‘tkazishgan. Agnonimiya deyilganda muqaddas deb bilinuvchi narsalar va shaxslar nomini anglash. Dostonda bunday nomlar juda ko‘p va o‘rinli qo‘llanilgan. “Alpomish” dostoni tilida ham teonimlar asar qahramonlarining milliy qadriyatlarini, diniy dunyoqarashini ifodalash uchun xizmat qilgan. Asar qahramoni Alpomishga ilohiy kuchlar, ya’ni pir-u payg‘ambarlar madadkor ekanligi tasvirlanadi. Qahramon ojiz bo‘lgan holatda doim pirlaridan madad so‘raydi. Dostonda Alpomishning Allohga, payg‘ambarga, pirlarga iltijosi va uning ijobati tasviri ham shundan dalolat. Jilovida Bobo Qambar jilovdor, G‘amingda otlandi Shohimardon pirlar (96-bet).

Yer yuzini tutib ketsa ajdahor, Fotma der, Zuhra der, kanizi darg‘a (100-bet) Bu kabi agnonimlar nafaqat tush bu dostonda balki, boshqa dostonlarda ham uchratish mumkin. Bularning bari, albatta, tilshunosligimiz va milliy boyligimiz sanaladi.[1]

Xalq dostonlarini o‘rganish tilshunoslikda bir necha jihatdan ahamiyatlidir:

1. Tilvleksika: Dostonlar tilni boyitadi, yangi so‘zlar va ifodalarni kiritadi. Bu, o‘z navbatida, tilning rivojlanishiga yordam beradi.
2. Madaniyat va an‘ana: Dostonlar xalqning madaniy merosini, urf-odatlarini va qadriyatlarini aks ettiradi, bu esa tilshunoslik uchun muhim ma‘lumot manbai bo‘ladi.
3. Tarixiy kontekst: Xalq dostonlari tarixiy voqealar va shaxslar haqida ma‘lumot beradi, bu esa tilning tarixi va rivojlanishini o‘rganishda yordam beradi.
4. Estetik va badiiy jihatlar: Dostonlarning badiiy uslubi va strukturasi o‘rganish tilshunoslik nazariyalarini tushunishga yordam beradi.
5. Ijtimoiy tafakkur: Xalq dostonlari ijtimoiy muammolarni, hissiyotlarni va insoniy tajribalarni yoritadi, bu esa til va kommunikatsiyaning ijtimoiy rolini tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, xalq dostonlarini o‘rganish tilshunoslikda til, madaniyat va tarixiy kontekstni chuqurroq tushunish imkonini beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. «O‘zbek tilini o‘qitishda xalq dostonlarining o‘rni» <https://www.pedagoglar.uz/index.php/01/article/download/6883/4912/7399>
2. Sobirova, M. (2020). The role of the family in the development of the integration process in science and education. "A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal" (<https://journalnx.com/papers/20151362-the-integration-process.pdf>) impact faktorga ega bo‘lgan DOI raqamli jurnali. 2020 y. 18-19 uyun. – B. 1161-1166.
3. Q.Husanboyeva. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta‘lim [Matn] / o‘quv qo‘llanma: – Toshkent: Barkamol fayz media, 2021-yil. – 366 bet.
4. 9. Sobirova M. O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi. Darslik. – Namanagan: Arjumand media, 2023. – B.512.
5. <https://imfaktor.com/index.php/jocaa/article/view/1027/1779>
6. <https://interonconf.org/index.php/ind/article/download/1536/1383/136>